




# TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

Xalqaro ilmiy jurnal

2023  
2-son

Samarqand-2023

ISSN 2992-9229



# TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY JURNALI


“TURKOLOGICAL RESEARCH” INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL  
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİ  
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ”




Xalqaro ilmiy jurnal SamDU Kengashining majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan (2023-yil 25-aprel, 11-sonli qarori)



Jurnal rasmiy sayti: <https://turkologiya.samdu.uz/>



SAMARQAND – 2023



# “TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL “TURKOLOGICAL RESEARCH”  
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ  
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Bosh muharrir:

**Juliboy ELTAZAROV**  
ff.d., professor (O‘zbekiston)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

**Roxila RUZMANOVA**  
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)

## TAHRIRIYAT KENGASHI:

**Rustam XALMURADOV** – t.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori (O‘zbekiston);  
**Hakim XUSHVAQTOV** – f-m.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston);  
**Akmal AHATOV** – t.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston);  
**Muslihiddin MUHIDDINOV** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);  
**Ibodulla MIRZAYEV** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);  
**Shuhrat SIROJIDDINOV** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);  
**Suyun KARIMOV** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);  
**Murodqosim ABDIYEV** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);  
**Shavkat HASANOV** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);  
**Azamat PARDAYEV** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);  
**Musa YULDASHEV** – f.f.n., professor (O‘zbekiston);  
**Dilfuza DJURAKULOVA** – t.f.n., dotsent (O‘zbekiston);

**Aftondil ERKINOV** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);  
**Qosimjon SODIQOV** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);  
**Hamidulla DADABOYEV** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);  
**Ma’rufjon YO’LDOSHEV** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);  
**Jabbor ESHONQUL** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);  
**Muhabbat QURBONOVA** – f.f.d., professor (O‘zbekiston);  
**Mardon BOLTAYEV** – dotsent (O‘zbekiston);  
**Ali AKAR** – f.f.d., professor (Turkiya);  
**Abdusalom ARVASH** – f.f.d., professor (Turkiya);  
**Funda TOPRAK** – f.f.d., professor (Turkiya);  
**Musa Shamil YUKSEL** – f.f.d., professor (Turkiya);  
**Temur KOJAO‘GLI** – f.f.d., professor (AQSH);  
**Hayrunnisa ALAN** – f.f.d., professor (Turkiya);  
**Varis CHAKAN** – f.f.d., professor (Turkiya);  
**Almaz ULVI** – f.f.d., professor (Ozarbayjon).  
**Dilshod XURSANOV** – Phd, dotsent (O‘zbekiston);  
**Shahnoza XUSHMURODOVA** – Phd, dotsent (O‘zbekiston);  
**Dinara ISLAMOVA** – Phd, dotsent (O‘zbekiston);  
Mas’ul muharrir: **PhD Zokir BAYNAZAROV** (O‘zbekiston)  
Texnik xodim: **Raxmatulla SHOKIROV** (O‘zbekiston)



# “TURKOLOGIK TADQIQOTLAR”

## XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Главный редактор:	Заместитель главного редактора:
<b>Жулибай ЭЛТАЗАРОВ</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Рохила РУЗМАНОВА</b> к.ф.н., доцент (Узбекистан)

### РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

<b>Рустам ХАЛМУРАДОВ</b> – д.т.н., профессор, ректор Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);	<b>Афтондил ЭРКИНОВ</b> – д.ф.н., профессор (Узбекистан);
<b>Хаким ХУШВАКТОВ</b> – д.ф-м.н., профессор, проректор по научной работе и инновациям Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);	<b>Касимжон СОДИКОВ</b> – д.ф.н., профессор (Узбекистан);
<b>Акмал АХАТОВ</b> – д.т.н., профессор, проректор по международному сотрудничеству Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);	<b>Хамидулла ДАДАБОЕВ</b> – д.ф.н., профессор (Узбекистан);
<b>Муслихиддин МУХИДДИНОВ</b> – д.ф.н., профессор (Узбекистан);	<b>Маруфжан ЙУЛДОШЕВ</b> – д.ф.н., профессор (Узбекистан);
<b>Ибодулла МИРЗАЕВ</b> – д.ф.н., профессор (Узбекистан);	<b>Джаббар ЭШАНКУЛ</b> – д.ф.н., профессор (Узбекистан);
<b>Шухрат СИРОЖИДДИНОВ</b> – д.ф.н., профессор (Узбекистан);	<b>Мухаббат КУРБАНОВА</b> – д.ф.н., профессор (Узбекистан);
<b>Суюн КАРИМОВ</b> – д.ф.н., профессор (Узбекистан);	<b>Мардон БОЛТАЕВ</b> – доцент (Узбекистан);
<b>Муродкасим АБДИЕВ</b> – д.ф.н., профессор (Узбекистан);	<b>Али АКАР</b> – д.ф.н., профессор (Турция);
<b>Шавкат ХАСАНОВ</b> – д.ф.н., профессор (Узбекистан);	<b>Абдусалам АРВАШ</b> – д.ф.н., профессор (Турция);
<b>Азамат ПАРДАЕВ</b> – д.ф.н., профессор (Узбекистан);	<b>Фунда ТОПРАК</b> – д.ф.н., профессор (Турция);
<b>Муса ЮЛДАШЕВ</b> – к.ф.н., профессор (Узбекистан);	<b>Муса Шамиль ЮКСЕЛЬ</b> – д.ф.н., профессор (Турция);
<b>Дилфуза ДЖУРАКУЛОВА</b> – к.и.н., доцент (Узбекистан);	<b>Темур КОДЖАОГЛУ</b> – д.ф.н., профессор (США);
	<b>Хайрунисса АЛАН</b> – д.ф.н., профессор (Турция);
	<b>Варис ЧАКАН</b> – д.ф.н., профессор (Турция);
	<b>Алмаз УЛЬВИ</b> – д.ф.н., профессор (Азербайджан).
	<b>Дилшод ХУРСАНОВ</b> – PhD, доцент (Узбекистан);
	<b>Шахноза ХУШМУРОДОВА</b> – PhD, доцент (Узбекистан);
	<b>Динара ИСЛАМОВА</b> – PhD, доцент (Узбекистан);
	Ответственный редактор: <b>PhD Зокир БАЙНАЗАРОВ</b> (Узбекистан)
	Технический персонал: <b>Рахматулла ШОКИРОВ</b> (Узбекистан)



# “TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”  
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ  
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ”

## Chief Editor:

**Juliboy ELTAZAROV**

*Doc. of philol. scienc., Professor (Uzbekistan)*

## Deputy Chief Editor:


**Rokhila RUZMANOVA**

*Candi. of philol. scienc., Associate Professor  
(Uzbekistan)*

## EDITORIAL TEAM:

**Rustam KHALMURADOV** – Doc. of technic. scienc., Professor, Rector of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);  
**Hakim KHUSHVAKTOV** – Doc. of physic. and mathematic. scienc., Professor, Vice-Rector for Research and Innovation, Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);  
**Akmal AKHATOV** – Doc. of technic. scienc., Professor, Vice-Rector for International Cooperation of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);  
**Muslihiddin MUKHIDDINOV** – Doc. of philol. scienc., Professor (Uzbekistan);  
**Ibodulla MIRZAEV** – Doc. of philol. scienc., Professor (Uzbekistan);  
**Shukhrat SIROJIDDINOV** – Doc. of philol. scienc., Professor (Uzbekistan);  
**Suyun KARIMOV** – Doc. of philol. scienc., Professor (Uzbekistan);  
**Murodkasim ABDIEV** – Doc. of philol. scienc., Professor (Uzbekistan);  
**Shavkat KHASANOV** – Doc. of philol. scienc., Professor (Uzbekistan);  
**Azamat PARDAEV** – Doc. of philol. scienc., Professor (Uzbekistan);  
**Musa YULDASHEV** – Candi. of philol. scienc., Professor (Uzbekistan);  
**Dilfuza DZHURAKULOVA** – Candi. of hist. scienc., Associate Professor (Uzbekistan);  
**Aftondil ERKINOV** – Doc. of philol. scienc., Professor (Uzbekistan);

**Kasimjon SODIKOV** – Doc. of philol. scienc., Professor (Uzbekistan);  
**Khamidulla DADABOEV** – Doc. of philol. scienc., Professor (Uzbekistan);  
**Marufzhan YULDOSHEV** – Doc. of philol. scienc., Professor (Uzbekistan);  
**Jabbar ESHANKUL** – Doc. of philol. scienc., Professor (Uzbekistan);  
**Muhabbat KURBANOVA** – Doc. of philol. scienc., Professor (Uzbekistan);  
**Mardon BOLTAEV** – Associate Professor (Uzbekistan);  
**Ali AKAR** – Doc. of philol. scienc., Professor (Türkiye);  
**Abdusalam ARVASH** – Doc. of philol. scienc., Professor (Türkiye);  
**Funda TOPRAK** – Doc. of philol. scienc., Professor (Türkiye);  
**Musa Shamil YUKSEL** – Doc. of philol. scienc., Professor (Türkiye);  
**Temur KOJAOGLU** – Doc. of philol. scienc., Professor (USA);  
**Hayrunnisa ALAN** – Doc. of philol. scienc., Professor (Türkiye);  
**Varis CHAKAN** – Doc. of philol. scienc., Professor (Türkiye);  
**Almaz ULVI** – Doc. of philol. scienc., Professor (Azerbaijan).  
**Dilshod KHURSANOV** – PhD, assoc. prof. (Uzbekistan);  
**Shahnoza KHUSHMURODOVA** – PhD, assoc. prof. (Uzbekistan);  
**Dinara ISLAMOVA** – PhD, assoc. prof. (Uzbekistan);  
 Managing editor: **PhD Zokir BAYNAZAROV (Uzbekistan)**  
 Technical staff: **Rakhmatulla SHOKIROV (Uzbekistan)**



# “TURKOLOGIK TADQIQOTLAR”

## XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ”

### Baş Editör:

**Juliboy ELTAZAROV**  
*Filoloji Bilimleri Doktoru, Prof. Dr.*  
*(Özbekistan)*

### Baş Editör Yardımcısı:

**Rohila RUZMANOVA**  
*Filoloji Bilimleri Adayı, Doç. Dr. (Özbekistan)*

### BİLİM KURULU:

**Rustam HALMURADOV** – Teknik bilimler doktoru, Prof. Dr., Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Rektörü (Özbekistan);

**Hakim HUŞVAKTOV** – Fizik ve matematik bilimleri doktoru, Prof. Dr., Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Araştırma ve İnovasyondan Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

**Akmal AHATOV** – Teknik bilimler doktoru, Prof. Dr., Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Uluslararası İşbirliğinden Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

**Muslihiddin MUHİDDİNÖV** – Filoloji bilimleri doktoru, Prof. Dr. (Özbekistan);

**İbodulla MİRZAYEV** – Filoloji bilimleri doktoru, Prof. Dr. (Özbekistan);

**Şuhrat SİROCIDDİNÖV** – Filoloji bilimleri doktoru, Prof. Dr. (Özbekistan);

**Suyun KARİMOV** – Filoloji bilimleri doktoru, Prof. Dr. (Özbekistan);

**Murodkasim ABDİYEV** – Filoloji bilimleri doktoru, Prof. Dr. (Özbekistan);

**Şavkat HASANOV** – Filoloji bilimleri doktoru, Prof. Dr. (Özbekistan);

**Azamat PARDADEV** – Filoloji bilimleri doktoru, Prof. Dr. (Özbekistan);

**Musa YULDAŞEV** – Filoloji bilimleri adayı, Prof. Dr. (Özbekistan);

**Dilfuza CURAKULOVA** – Tarih bilimleri adayı, Doç. Dr. (Özbekistan);

**Aftondil ERKİNOV** – Filoloji bilimleri doktoru, Prof. Dr. (Özbekistan);

**Kasimcon SODİKOV** – Filoloji bilimleri doktoru, Prof. Dr. (Özbekistan);

**Hamidulla DADABOYEV** – Filoloji bilimleri doktoru, Prof. Dr. (Özbekistan);

**Marufcan YULDOŞEV** – Filoloji bilimleri doktoru, Prof. Dr. (Özbekistan);

**Cabbar EŞANKUL** – Filoloji bilimleri doktoru, Prof. Dr. (Özbekistan);

**Muhabbat KURBANOVA** – Filoloji bilimleri doktoru, Prof. Dr. (Özbekistan);

**Mardon BOLTAYEV** – Doç. Dr. (Özbekistan);

**Ali AKAR** – Filoloji bilimleri doktoru, Prof. Dr. (Türkiye);

**Abdusalam ARVAS** – Filoloji bilimleri doktoru, Prof. Dr. (Türkiye);

**Funda TOPRAK** – Filoloji bilimleri doktoru, Prof. Dr. (Türkiye);

**Musa Şamil YÜKSEL** – Filoloji bilimleri doktoru, Prof. Dr. (Türkiye);

**Timur KOCAOĞLU** – Filoloji bilimleri doktoru, Prof. Dr. (ABD);

**Hayrunnisa ALAN** – Filoloji bilimleri doktoru, Prof. Dr. (Türkiye);

**Varis ÇAKAN** – Filoloji bilimleri doktoru, Prof. Dr. (Türkiye);

**Almaz ÜLVİ** – Filoloji bilimleri doktoru, Prof. Dr. (Azerbaycan).

**Dilşod HURSAVOV** – PhD. Doç. (Özbekistan);

**Şahnoza HUŞMURODOVA** – PhD. Doç. (Özbekistan);

**Dinara İSLAMOVA** – PhD. Doç. (Özbekistan);

Sorumlu Editör: **PhD Zokir BAYNAZAROV**  
**(Özbekistan)**

Teknik Personel: **Rahmatullah ŞOKIROV**  
**(Özbekistan)**

## MUNDARIJA | CONTENT | İÇERİK | СОДЕРЖАНИЕ

### TURKIY TILLAR DIALEKTOLOGIYASI

**Dr.Öğr.Gör. Emrah YILMAZ**

TÜRK DİLİNİN DİYALEKTAL TÜRLERİNİN TASNİFİNDE KULLANILAN SÖZ BAŞI /*y- /ÜNSÜZÜNÜN DURUMU .....	8
---	---

**Yusupova Orziboni Sunnatovna**

ADABIY TIL VA BADIY ASAR TILI XUSUSIDA .....	21
--	----

### TURKIY XALQLARNING IJTIMOY-MADANIY ALOQALARI TARIXI

**Mahkamoy TURSUNOVA**

SAMARQAND VA ISTANBUL UNIVERSITETLARI ORASIDA HAMKORLIK VA BIRDAMLIKNING TARIXIY ILDIZLARI HAQIDA .....	27
--	----

**Мусо Юлдошев**

ЕВРОПА МАДАНИЯТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ҚАДИМГИ ТУРКИЙ ХАЛҚЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ .....	34
--	----

### QIYOSIY TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK

**Латыпов Фарит Рафгатович**

ЗАПАДНО-ПРАТЮРКСКИЙ СУБСТРАТ В ГЕТО-ФРАКИЙСКОМ ТЕКСТЕ ГТР-13, СОДЕРЖАЩЕМ ПАТРИОТИЧЕСКИЙ ПРИЗЫВ ПРОТИВ АГРЕССИИ РИМЛЯН, В СОПОСТАВЛЕНИИ С ЛЕКСИКОЙ ЛИТЕРАТУРНЫХ УЗБЕКСКОГО И КАЗАНСКО- ТЮРКСКОГО ЯЗЫКОВ .....	39
---	----

**Salohiy Dilorom Isomiddin-kızı, Mamatkulov Pulat**

NİZAMİ VE ZAHİRİDDİN MUHAMMED BABUR'UN EDEBİ-ESTETİK İLKELERİ.....	48
--	----

### TURK DUNYOSI TADQIQOTLARI

**Sayalı Cəfərova**

MUSA CƏLİL TATAR ƏDƏBİYYATININ GÖRKƏMLİ NÜMAYƏNDƏSİ KİMİ .....	53
--	----

**Ruzmanova Roxila**

TURK TILIDA YARATILGAN LUG‘ATLAR TAJRIBASIDAN .....	58
---	----

**Kalieva N.Sh., Zhalalova A.M., PhD T.Zhurgenov**

VERBALIZATION OF THE "WORLD" CONCEPTOSPHERE IN THE LANGUAGE WORLDVIEW OF THE SUMERIAN AND ANCIENT TURKIC PEOPLES .....	72
---	----

**Aynur Cəfərova**

QƏDİM QIRĞIZ DASTANI OLAN “MANAS” DASTANINDA İŞLƏNƏN SAIT VƏ SAMİT FONEMLƏRİ .....	80
---	----

**Axmad XASANOV**

BADIY ASARDA TERMIN QO‘LLASH ZARURATI .....	85
---	----

**Shokirov Raxmatulla Shavka o‘g‘li**

TOPONIMLARNI O‘RGANISHDA ZAMONAVIY KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI- DAN SAMARALI FOYDALANISH .....	92
---	----

**AZIZ MUSHTARIY!**

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-ma'rifiy, ilm-u fanni rivojlantirishga qaratilgan siyosat, Turkiy Davlatlar Tashkilotining Samargandda o'tkazilgan sammitida ko'zda tutilgan o'zaro aloqalarni jadallashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish hamda turkologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish va yoritish maqsadida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Turkologik tadqiqotlar” xalqaro jurnali ta'sis etildi. Jurnal turkiy til va shevalar, Markaziy Osiyo turkiy xalqlari lisoniy va adabiy aloqalari tarixi, ijtimoiy-madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalarini e'lon qilishga mo'ljallangan. Jurnalda muharrir minbari, tadqiqotlar, ilmiy axborot, taqriz va e'tirof, ilmiy anjuman, yosh tadqiqotchi, xotira, yubilyarlarimiz kabi ruknlar mavjud. O'zbek, turk, rus, ingliz va barcha turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

**TAHRIRIYAT**

**DEAR READER!**

*B In order to implement programs and projects developed to accelerate the relationship envisaged at the summit of the Organization of Turkic States held in Samarkand, as well as to coordinate and highlight the research work carried out in the field of Turkic studies, the International Journal, Samarkand State University named after Sharof Rashidov, “Turkological Studies” passed the state registration. The journal is intended to publish the results of scientific research in the field of Turkic languages and dialects, the history of linguistic and literary relations of the Turkic peoples of Central Asia, the socio-cultural field. There are such headings as a young researcher, memory and our anniversaries. Articles written in Uzbek, Turkish, Russian, English and all Turkic languages are accepted.*

**EDITORIAL BOARD**

**SEVGİLİ OKUYUCU!**

Özbekistan Cumhuriyeti devletinin sosyal-eğitimsel ve bilimsel gelişme politikasının başarılı şekilde uygulanmasına yardımcı olmak amacıyla, Semerkant'ta düzenlenen Türk Devletleri Teşkilatının zirvesinde öngörülen karşılıklı ilişkilerin hızlandırılması için geliştirilen program ve projeleri uygulamak, bilimsel çalışmaları koordine etmek, Türkoloji alanında yürütülen araştırma çalışmaları Semerkant Devlet Üniversitesi, uluslararası “Türkoloji Araştırmaları” dergisini tescil etmiştir. Dergi, Türk dili ve lehçeleri, Orta Asya Türk topluluklarının dil ve edebiyat ilişkileri tarihi, sosyo-kültürel alanlardaki bilimsel ve araştırma çalışmalarının sonuçlarını yayınlamayı amaçlamaktadır. Dergimizde editör kürsüsü, araştırma, bilim dünyasından, inceleme ve tanıma, bilimsel konferans, genç araştırmacı, hatıra, yıldönümleri gibi sütunlar yer almaktadır. Özbekçe, Türkçe, Rusça, İngilizce ve tüm Türk lehçelerinde yazılmış makaleler kabul edilmektedir.

**YAYIN KURULU**

**УВАЖАЕМЫЙ ЧИТАТЕЛЬ!**

В целях реализации программ и проектов, разработанных для ускорения взаимоотношений, предусмотренных на состоявшемся в Самарканде саммите Организация Тюркских Государств, а также координации и освещения научно-исследовательской работы, проводимой в области тюркологии, Международный журнал, Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова, «Тюркологические исследования» прошел государственную регистрацию. Журнал предназначен для публикации результатов научно-исследовательских работ в области тюркских языков и диалектов, истории языковых и литературных связей тюркских народов Средней Азии, социокультурной области. В журнале есть такие рубрики, как подиум редактора, исследования, научная информация, рецензия и признание, научная конференция, молодой исследователь, память, юбилеи. Принимаются статьи, написанные на узбекском, турецком, русском, английском и всех тюркских языках.

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИИ**

## TURK TILIDA YARATILGAN LUG‘ATLAR TAJRIBASIDAN

Rohila RUZMANOVA,  
Dots., Sharof Rashidov nomidagi  
Samarqand davlat universiteti  
Turkologiya ilmiy-tadqiqot instituti  
ORCID ID: 0000-0001-6539-0511  
E-mail: [roxilaruzmanova694@gmail.com](mailto:roxilaruzmanova694@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqlada lug‘atlar va ularning yaratilish tarihi, turk tilidagi lug‘atlar, xususan, Turk Til Qurumi tomonidan tayyorlangan lug‘at nashrlari, undagi so‘zlar hajmi, xususiyati, virtual olam uchun tayyorlangan lug‘at varianti, unda qidirilgan so‘z turi, asosi, talaffuzi, tarjimasi, ma’nosи, matnda qo‘llanishi, birga qo‘llanilgan so‘zlar bilan hosil qilgan qolip ifodalari, barqaror birikmalari, iboralar va maqollar bilan foydalanuvchiga taqdim etilishi haqidagi mulohazalar bayon qilinadi. Turk tili bilan bog‘liq asosiy ma’lumotlardan tortib, hujjatlar yozilishigacha bo‘lgan ko‘plab materiallarning qo‘sishimcha bo‘lim sifatida berilganligi, katta qiziqishlarga sabab bo‘lgan bu bo‘lim “Turkcha so‘zlik”ning ensiklopedik ma’lumotlarni qamraganligi va foydalanuvchilarga asosiy manbalarni beruvchi lug‘at taqdim etganligi bilan ahamiyatli ekanligi ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** so‘zlik, lug‘at, Turk Til qurumi, termin, qomus, alifbo.

## FROM THE EXPERIENCE OF DICTIONARIES CREATED IN THE TURKISH LANGUAGE

**Abstract:** In this article, opinions about dictionaries and the history of their creation, dictionaries in the Turkish language, in particular, dictionary editions prepared by the Turkish Language Institute, the size and characteristics of the words in them, the version of the dictionary prepared for the virtual world, the type of word searched in it , the basis, pronunciation, translation, meaning, the use in the text, stereotyped expressions formed by the words used together, stable combinations, expressions and proverbs are presented to the user. The fact that many materials, from basic information related to the Turkish language to the writing of documents, are provided as an additional section, this section, which has caused great interest, is the encyclopedic information of "Turkish Dictionary". It is noted that it is important because it covers information and provides users with a glossary of primary sources.

**Keywords:** vocabulary, dictionary, Turkish language institution, term, dictionary, alphabet.

## ИЗ ОПЫТА СОЗДАНИЯ СЛОВАРЕЙ НА ТУРЕЦКОМ ЯЗЫКЕ

**Аннотация:** В статье рассматриваются турецкие словари и история их создания, в частности, словарные издания, составленные Институтом турецкого языка. Представлены размер , характеристика, версия словаря, подготовленного для виртуального мира. Отмечается, что пользователю представляются перевод , тип, основа, произношение, значение, употребление в тексте, стереотипные выражения , устойчивые сочетания, выражения и пословицы, употребляемые с искомыми словами. Подчеркивается, что многие материалы, от базовой информации, связанной с турецким языком, до написания документов, представлены в качестве дополнительных разделов, этот раздел, представляющий большой интерес, важен тем, что “турецкий словарь” охватывает

энциклопедическую информацию и предоставляет пользователям глоссарий, который предоставляет основные источники.

**Ключевые слова:** лексика, словарь, Институт турецкого языка, термин, алфавит.

---

Lug‘atlar, bir tilning butun yoki ma’lum bir davriga oid bo‘lgan so‘zlarning imlosi, talaffuzi, qo‘sishimcha ma’nolari, qo’llanish doirasiga ko‘ra qayd qilinadigan, adabiy matnlardan tanlangan gaplar orqali misollar keltirilib, o‘zlashgan so‘zlarning qaysi tildan olinganligini bildiruvchi asosiy manba hisoblanadi.

Keyingi yillarda bir tilga oid so‘zлarni boshqa tillardagi tarjimalarini bildiruvchi, izohlovchi lug‘atlar ham yaratilmoqda. Shunga ko‘ra, bir tilli, ikki tilli yoki ko‘p tilli lug‘atlar deyish mumkin. Foydalanuvchilar uchun eng qulay shaklda tayyorlash, lug‘atlar bilan shug‘ullanish lug‘atshunoslik (leksikografik) tadqiqotlarining asosini tashkil etadi.

Qardosh ozarbayjon, turkman, uyg‘ur tillarida “sözlük”, qozoq tilida “sözdik”, qirg‘iz tilida “sözdük”, turk tilida “sözlük” tarzida qo’llanilgan ushbu termin Turk Til Qurumi tashkilotchisi Jalol Sahir Erozan fikriga ko‘ra “so‘z” o‘zagining turlari sifatida qo’llaniladi. Turkiy tillarda bu termindan avval arab tilidan kirib kelgan “qomus”, “lug‘at” kabi so‘zlar qo’llanilgan. Mahmud Qoshg‘ariy ham asarini “Devoni lug‘ati’t turk” deb ataydi. “Lug‘ati Usmoniy”, “Lahjatu'l lug‘at”, “Lug‘ati Chig‘atoy” kabi bir qator lug‘atlar nomidan bilish mumkinki, “lug‘at” so‘zi ham uzoq davrlardan buyon qo’llanib kelingan. Shu bilan birga, “Qomus-i Turkiy”, “Qomus-i Usmoniy”, “Mukammal qomus” kabi lug‘atlar misolida “qomus” so‘zi ham qo’llanganligini ko‘rish mumkin.

Manbalarga ko‘ra, ilk lug‘atlar savdogar va sayyoohlar foydalanishi uchun yaratilgan bo‘lib, ularda hayvon, o‘simlik, tosh, yulduz kabi nomlar ikki tilda berilgan. Qadimgi Yunonistonda esa, tarixiy manbalarda keltirilgan, tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar iste’moldagi so‘zlar bilan ifodalab berilgan. Shuningdek, Qadimgi Yunonistonda tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar bilan bir qatorda, taom va ichimlik nomlari, Aflatun, Gipokrat kabi faylasuf olimlar asarlarida qo’llanilgan so‘zlar ham lug‘atlardan joy olgan.

Turkiy tilda yaratilgan ilk lug‘at Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘ati’t turk” asaridir. Turkiy xalqlar tili, adabiyoti, hayat tarzi va urf-odatlarini puxta o‘rgangan Qoshg‘ariy, 1072-1074-yillarda ushbu asarni tamomlaydi. “Devoni lug‘ati’t turk”dan oltmis yil o‘tib, Zamaxshariy tomonidan “Muqaddimat’ul adab” lug‘ati yaratiladi. Keyinchalik esa turli davrlarda ko‘plab lug‘atlar yaratildi. Turk tilida yaratilgan lug‘atlar asosan XVIII asrdan boshlanganligi ko‘rinadi. Mehmed Asad Afandining “Lehctü'l -lügat” (XVIII asr), James V.Redhousesning “Müntahabat-i Türkiyye” (1842), Ahmed Vefik Poshoning “Lehce-i Osmani” (1876) va Shamsiddin Samining “Kamus-i turki” (1900) nomli lug‘atlari turk lug‘atshunosligining muhim natijalaridir. Shuningdek, “Kamus-i turki” keyingi yillarda nashrga tayyorlangan ko‘plab lug‘atlar uchun manba vazifasini bajargan.

1945-yilda Turk Til Qurumi tomonidan tayyorlangan “Turkcha so‘zlik” hozirgi kungacha 11 nashri amalga oshirgan bo‘lib, turk lug‘atshunosligining asosiy asarlaridan hisoblanadi. Ilk nashr 32.104 so‘zdan iborat bo‘lib, oltmis besh ming nusxada chiqadi. 1955-yilda ikkinchi nashr amalga oshiriladi va 35.738 so‘z kiritiladi. 1959-yilda yana ikki mingga yaqin so‘z va iboralar qo‘silib uchinchi nashrda 37.921 so‘z, to‘rtinchi nashrda esa avvalgi nashr ko‘zdan kechirilib qayta tayyorlanadi. Lug‘atni nashrga tayyorlovchi Mehmet Ali Ag‘akaydir. Ag‘akay tomonidan nashrga tayyorlangan ilk to‘rt nashr beshinchi, oltinchi va yettinchi nashrlar uchun ham asos hisoblanadi. 1969-yilda nashr qilingan beshinchi nashrga 38.470 so‘z kiritilgan bo‘lib, bir qator

o‘zgartirishlar qilinadi. Davr uchun eskirgan so‘zlar lug‘atga kiritilmaydi va keng iste’molda bo‘lgan chetdan kirib kelgan so‘zlar milliy tildagi ifodasi bilan lug‘atdan joy oladi. 1974-yilda nashr qilingan oltinchi nashrda avvalgilardan farqli o‘laroq, til sohasiga doir terminlar ham kiritilib, 45.178 so‘z joy oladi. 1983-yilda Turk Til Qurumi tashkilotchisi Otaturk xotirasiga bag‘ishlab tayyorlangan yettinchi nashr 59.727 so‘zni o‘z ichiga oladi. 1988-yilda tayyorlangan sakkizinchi nashr “yangi nashr” nomi bilan ikki jild sifatida chiqadi. Jami 63.321 so‘zni o‘z ichiga olgan lug‘at 115.000 nusxada chop etiladi. Sakkizinchi nashrdan o‘n yil o‘tib, 1998-yilda to‘qqizinchi nashr chop etiladi. Adabiy matnlar, o‘rta maktab, gazeta va jurnallar, turli sohalardagi ilmiy terminlardan odatiy iste’molga ko‘chgan so‘zlar o‘rganilib, lug‘at yana-da boyitiladi. Turk Til Qurumining xorijiy so‘zlarga muqobil so‘zlarni tanlash komissiyasi tomonidan tavsiya qilingan variantlar to‘qqizinchi nashrdan joy oladi. Shuningdek, Turkiyada 1996-yilda chop etilgan “Imlo qoidalari”ga amal qilib tayyorlangan to‘qqizinchi nashrda so‘z, termin, ibora, qo‘sishma va asosdan iborat 98.107 so‘z joy oladi. Lug‘at 100.000 nusxada chop etiladi. Turk tili masalasida yetakchi qurumdan yil sayin ko‘proq manba talab qilinayotgan edi. Lug‘atning virtual olamda joy olishi uchun Otaturk madaniyat, til va tarih oliy qurumi boshqaruv kengashi 2002-yil 19-martda 432/13-qarori bilan so‘zlikning yanada kengaytirilgan va tuzatilgan shaklining elektron variantini yaratish maqsadida universitetlar kompyuter mutaxassislari ham ko‘ngillli tarzda hissa qo‘sadilar. Virtual olam uchun tayyorlangan lug‘atda qidirilgan so‘z turi, asosi, talaffuzi, tarjimasi, ma’nosи, matnda qo‘llanishi, birga qo‘llanilgan so‘zlar bilan hosil qilgan qolip ifodalari, barqaror birikmalari, iboralar va maqollar bilan foydalanuvchiga taqdim etilishi lozim edi. Lug‘atning elektron shaklini yuzga yaqin mutaxassislar, kompyuter sohasi xodimlari ikki oy davomida tarmoq adresi orqali sinovdan o‘tkazadilar. Oradan uch yilga yaqin vaqt o‘tgach, 2005-yilda lug‘atning o‘ninchi nashrida 77.407 so‘z joy oladi. Ulardan 45.005 tasi ism, 11.305 tasi sifat, 2.644 tasi ravish, 87 tasi olmosh, 33 tasi yordamchi so‘zlar, 289 tasi undov, 53 tasi bog‘lovchi, 6.441 tasi esa fe’llar edi. Turk adabiyotidan tanlangan 29.040 misol gaplar bilan ko‘rsatilgan lug‘atlar matni 1.236.484 so‘zdan iborat edi.

Turk Til Qurumi tomonidan 2002-yilda foydalanishga topshirilgan lug‘atdan so‘ng, o‘tgan vaqt oralig‘ida “Kishi nomlari lug‘ati”, “Bilim va san‘at terminlari asosiy lug‘ati”, “Turk tilida ma’nodosh va yaqin ma’noli so‘zlar lug‘ati”, “Turk lahjalari lug‘ati”, “Turkchada g‘arb asosli so‘zlar lug‘ati”, “Turkiya turkchasi shevalari lug‘ati”, “Arxaik so‘zlar lug‘ati”, “Ovozli turkcha lug‘at”, “Maqollar va iboralar lug‘ati” ham taqdim etiladi. Turk tilidagi har bir so‘zning to‘g‘ri va namunadagidek talaffuz qilinishini taqdim etuvchi elektron “Ovozli turkcha lug‘at” so‘zlar talaffuzi me’yorini ta’minlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, ko‘plab murojaatlarga sabab bo‘ladi. Bu ishlar amalga oshirilayotgan bir paytda “Turkcha so‘zlik”ning yangi nusxasi 2011-yilda nashr qilinishi maqsad qilinadi. Shuningdek, bu nusxani tayyorlash uchun prof.Shukri Haluk Akalin boshchiligidagi professor-o‘qituvchi mutaxassislardan iborat guruh tuziladi. Ishchi guruh lug‘atning elektron ma’lumotlar bazasini shakllantirish, yangi nashrini tayyorlash, tilga yangi kirib kelgan xorijiy so‘zlarga muqobilini topish, elektron lug‘at foydalanuvchilarining savollariga javob berish kabi ishlar bilan birga “Turkcha so‘zlik” va “Imlo qoidalari” o‘rtasida imlo jihatdan me’orni ta’minlash vazifasini ham bajaradi.

“Turkcha so‘zlik”ning o‘n birinchi nashri so‘z, termin, ibora va izohlardan iborat 122.423 so‘zdan iborat. Lug‘atda jami 92.292 so‘z mavjud bo‘lib, 53.451 tasi ism, 12.666 tasi sifat, 3.312 tasi ravish, 88 tasi olmosh, 40 tasi ko‘makchilar, 299 tasi undov so‘z, 50 tasi bog‘lovchi, 9.912 tasi esa fe’ldir. Turk adabiyotidan tanlangan 34.664 misol gaplar bilan ifodalangan lug‘at matni esa 1.454.903 so‘zdan iboratdir.

Turk Til Qurumida mavjud “Turkcha so‘zlik” ma’lumotlar bazasiga ma’no va misollar ilova qilinishi uchun yozuvchi va shoirlar asarlarining elektron variantidan iborat korpusdan ilk marta bu nashrda foydalaniladi. Lug‘at bo‘limlariga kiritilmagan bir qator ma’lumotlar birinchi marotaba bu nashrda, lug‘at so‘nggida beriladi. Turk tili bilan bog‘liq asosiy ma’lumotlardan tortib, hujjatlar yozilishigacha bo‘lgan ko‘plab ma’lumotlarni bu bo‘limda ko‘rish mumkin. “Qo‘sishimcha ma’lumotlar”dagi “Turkcha” va “Yozishmalar” bo‘limlari Shukri Haluk Akalin, “Tarjimalar”, “Koinot”, “Dunyo”, “Turkiya” va “Qisqartmalar va manbalar” bo‘limlari Belgin Aksu tomonidan tayyorlangan. Bu ma’lumotlarning bir bo‘limi avvalroq “Rasmli maktab lug‘ati” oxirida nashr qilinadi. Katta qiziqishlarga sabab bo‘lgan bu bo‘lim “Turkcha lug‘at” uchun yana-da kengaytirilib, kitobxonlar talablariga ko‘ra yangi bo‘limlar qo‘shiladi. Ba’zi ma’lumotlar ensiklopedik ma’lumot bo‘lishi mumkin, ammo maqsad foydalanuvchilarga turk tili bilan asosiy manbalarni beruvchi lug‘at taqdim etish edi.

Turk Til Qurumidan boshqa tashkilotlar va jamoalar ham lug‘at tayyorlash bilan shug‘ullanishgan. Ularning ko‘philigi yakka mualliflikda tayyorlanganligini ko‘rish mumkin. Ammo bugungi kunda mukammal lug‘atlarni yaratish uchun so‘z ma’nolarining izohlanishi, misollar keltirilishi, terminlar ma’nolari ifodalanishi, shu bilan birga elektron shakli ham mavjud bo‘lishi kerak. Bu jarayonlar esa yetuk mutaxassislar hamkorligini talab qiladi. Turk Til Qurumi tomonidan tayyorlangan “Turkcha lug‘at”larning boshqa bir qancha lug‘atlardan afzalligi ham shundadir. Oltmis besh yillik an’ana, yuzlab mutaxassislar mehnati, mas’ulligida tartibli, ma’lumotlarga boy “Turkcha lug‘at” turk tilida yaratilgan eng mukammal, eng salmoqli va muvaffaqiyatli lug‘atdir.

Lug‘at so‘nggida eng e’tiborli jihat, qo‘sishimcha ma’lumotlar sifatida oltoy tillar oilasi, turk tilining tovush xususiyatlari, turk yozuv tarixi haqida qaydlar ham keltiriladi. Shuningdek, turk tilining lug‘at boyligi, til geografiyasi, ona tilida so‘zlashuvchilarga ko‘ra tillar va turk tili, turk alifbosi, turklar foydalangan boshqa alifbolar, morze alifbosi, asosiy yozuv qoidalari, tinish belgilari va boshqa ishoralar, so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘sishchalar haqidagi ma’lumotlarning batafsil keltirilganligi lug‘atning qimmatini yana-da oshiradi. Lug‘atga muroaat qilgan kitobxon faqatgina o‘ziga kerakli so‘zlar izohi bilan tanishib qolmasdan, ayni paytda yigirma millionga yaqin insonlar foydalananidan turk tili, Oltoy til oilasining eng ko‘p so‘zlashuvchilariga ega guruhiga kirishini, turk yozma tili tarihinining VII-VIII asrlarda O‘rxun vodiysida qad rostlagan obidalardan boshlanganligi hamda miloddan avvalgi IV asrga oid Ko‘kturk yozuviga o‘xhash harflar bilan yozilgan yozuvning eng qadimiy Turkcha matn ekanligi, adabiy matn sifatida esa To‘nyuquq, Kultegin, Bilga Hoqonlarga bag‘ishlangan O‘rxun yozuvlari haqidagi ma’lumotlarga ham ega bo‘ladi. Shuningdek, turk tilidagi ilk lug‘at Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘ati-turk” asari ekanligi, muallif qoraxoniyalar, uyg‘urlar, o‘g‘uzlar, qipchoqlar, qirg‘izlar va boshqa bir qancha qarindosh jamoalarining lug‘at boyligini o‘rganib to‘plagani, yigirmadan ortiq yozma til va og‘zaki ijodini to‘plab umumiy “Turk” nomi ostida birlashtirgani, ko‘plab xususiyatlari o‘xhash bo‘lgan ushbu tillar vaqt o‘tishi bilan rivojlanib, takomillashib bugungi kunda rasmiy tillar maqomiga ega bo‘lganini, Turkiyadagi turk tili ham XIII asrda Onado‘li va Bolqonlarda o‘g‘uz turkchasi asosida yangi bir yozuv tili sifatida rivojlanganligi, Sulton Valad, Yunus Emro, Oshiq Posho kabi adiblar asarlari bu tilning namunalari ekanligini hamda bu davr Eski Turkiya turkchasi, Eski Onado‘li turkchasi, Eski Usmonlicha sifatida nomlanganligini ham bilib olish imkoniyatiga ega.

